

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

**ZAMONAVIY HUQUQIY DAVLATCHILIK QURISHDA DAVLAT
MEXANIZMINING ROLI**

Aminov Dalerjon Alisher-o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchisi;

Mail: daleraminov554@mail.ru

Qudratova Kumush Murodjon qizi

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo'naliш

5.4 YURS 23 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat mexanizmi tushunchasining mazmun mohiyati, bu borada milliy olimlarning ilgari surgan nazariy tahlillari, uning tashkil etilishi, faoliyat yuritishi, xususan, hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi, davlat mexanizmining tarixiy shakllanish jarayoni, hamda, uning asosiy ishtirokchilari va faoliyat jarayonidagi kamchilik va muammolarni o'rgangan holda, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar berish haqida atroficha fikr-mulohaza bildiriladi.

Annotation. This article provides a comprehensive overview of the content of the concept of government mechanisms, previous theoretical analysis of national scientists in this regard, its organization, its functioning, especially the principle of division of power, the historical formation process of government mechanisms, and its key participants and proposals for addressing deficiencies and problems in the process of operation

Kalit so'zlar: mexanizm, davlat mexanizmi, hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi, elektron hukumat.

Key words: mechanism, government mechanism, principle of division of powers, electronic government.

Bizning maqsadimiz – xalq hokimiyatini so'zda emas, amalda ta'minlashdan iborat. Bu- biz yashayotgan bugungi murakkab davrning asosiy talabidir¹.

SHAVKAT MIRZIYOYEV

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi, 2023- yil.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Yer yuzida turfa xildagi davlatlar mavjud bo'lib, ular aynan boshqaruv tizimi, tuzilish shakli, siyosiy rejimi, davlat mexanizmining yuritilish tartibi va davlat apparatining tashkil etilishi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Albatta, davlatni siyosiy jihatdan tashkil etishda, fuqarolarning huquq, erkinliklarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda, umuman, davlat boshqaruvini to'g'ri tizim asosida yuritishni yo'lga qo'yishda davlat mexanizmi muhim rol o'ynaydi. Buning uchun esa, avvalambor, davlat mexanizmi to'g'ri tarzda shakllantirilishi lozim. Davlat mexanizmi haqida so'z borar ekan, davlat mexanizmini davlat boshqaruvida tutgan o'rni, uning asrlar davomida qadimgi sivilizatsiyalarning boshqaruv tizimlari ta'sirida qay tarzda o'zgarib borgani, davlat mexanizmini ishlab chiqishda va rivojlantirishda asosiy ishtirokchilarning faoliyat prinsiplari, boshqa davlatlarning davlat mexanizmlarini o'rganib chiqish asosida, qiyosiy tahlillar o'tkazish, hamda davlat mexanizmining kamchiliklarini o'rganib chiqqan holda, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritish va shuningdek, davlat mexanizmini kelajakdagi tendentsiya va muammolarini prognoz qilish kabi masalalarni ko'rib chiqadi.

Davlat mexanizmi, asrlar davomida qadimgi sivilizatsiyalarning boshqaruv tizimlari ta'sirida o'zgarib, rivojlanib bordi va hozirgi davrga kelib, murakkab ko'rinishdagi "davlat mexanizmi" tashkil topdi. Albatta, bunday o'zgarishlar fuqarolarning manfaatlarini, ularning huquq erkinliklari ta'minlanishini, davlatdagi boshqaruv tizimi bo'linishini hamda, vakolatlar bo'linishidagi "manfaatlar to'qnashuvini" oldini olishni, davlatni har bir sohada universal tarzda tashkil etishda muayyan bosqichlarni bosib o'tgan bo'lishi ehtimoldan yiroqmas. Zero, agar tarixga nazar tashlagan holda davlat mexanizmini o'rgansak, biz unda davlatni boshqarishda uning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rishimiz mumkin, ya'ni, davlat boshqaruvi yakka shaxs tomonidan boshqarilishi, (normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, ularning ijrosini ta'minlash, sudlar tizimini yuritish, boshqa davlatlar bilan hamkorlik va.h.k) bir shaxsga qiyinchilik tug'dirgan holda, davlat boshqaruvi bo'linish tamoyiliga asoslanishini keltirib chiqargan va bu davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipining ilk, sodda ko'rinishi bo'lган, shuningdek, davlatni boshqarishdagi kamchilik bu, va hozirda "manfaatlar to'qnashuvi" iborasi bilan tanilgan, davlatning qon-qarindoshlar tomonidan boshqaruvi sanalgan, ya'ni o'tmishga nazar solsak, davlat boshqaruvi asosan sulolar, bir avlod vakillari (xorazmshohlar, shayboniylar, temuriylar) tomonidan boshqarilganligini guvohi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

bo'lamiz va shu kabi davlat boshqaruvining rivojlanish tarixidagi foydali jihatlari va muammolarini o'rganish orqali davlat mexanizmi o'zgara borgan. Monarxiyalardan zamonaviy demokratik davlatlargacha davlat mexanizmi xalq irodasini ifodalash uchun o'zgardi va turli mamlakatlar o'zlarining ijtimoiy, madaniy va tarixiy sharoitlarini aks ettiruvchi davlat mexanizmining o'ziga xos variantlarini ishlab chiqish talablarini qo'ydilar. Misol uchun, yurtimizda 2008-yil 1-yanvardan boshlab o'lim jazosi bekor qilindi va bu fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi muhim xalqaro huquqiy hujjatning O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya (xalqaro shartnomaning davlat hokimiysi oliy organi tomonidan tasdiqlanishi) qilinishi orqali yuzaga keldi. O'zbekiston xalqaro maydonga chiqar ekan, o'z xalqining mentalitetiga mos keluvchi, xalqning qonuniy manfaatlari inobatga olinishini ta'minlovchi xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilishda, davlat mexanizmi boshqaruvidagi "qonuniylik" prinsipi asosida davlat boshqaruvidagi faoliyat xalqaro shartnoma va qonunlarga zid kelmagan holda boshqaruvni amalga oshirishni anglatadi.

Davlat hokimiyatini boshqarish mexanizmining asosiy ishtirokchilari haqida gapiranimizda, davlatning mansabdor shaxslari ko'z o'ngimizga kelishi tabiiy hol va bu qisman to'g'ri, lekin davlat mexanizmini to'g'ri va samarali ishslashini ta'minlovchi asosiy ishtirokchilarni biz, asosan demokratik davlatlarning davlat hokimiyatining boshqaruvi tizimida, ya'ni konstitutsiyamizning 11-moddasida ko'rshimiz mumkin. Konstitutsiyamizning ushbu moddasida quyidagicha ta'kidlanadi: "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi-hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi", ya'ni yagona davlat hokimiysi mustaqil va bir-biriga bo'ysunmaydigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi"². Ushbu prinsipning vazifasi davlat hokimiysi to'laligicha bir shaxs yoki organ qo'lida jamlanishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Zero, hokimiyatning to'liq bir shaxs yoki yoki organ qo'lida jamlanishi demokratiya va inson huquq hamda erkinliklariga bevosita xavf tug'diradi, avtoritar tuzum o'natilishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasida hokimiyat vakolatlarini taqsimlanishi prinsipini joriy qilishdan maqsad, mamlakatda demokratiyalashtirish jarayonini tezlashtirish, davlat mexanizmini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni qayta tiklash, inson huquq va erkinliklarining ustuvorligini tan olish va pirovardida huquqiy davlat barpo

² 30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (lex.uz)

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

etishdir. Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi hokimiyatning suiiste'mol qilinishidan, byurokratizmdan va siyosiy hayotdagi bosh-boshdoqlikdan qutulish, hokimiyat organlarining muvozanati va tengligini ta'minlash, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga solish imkoniyatini beradi. bunda qonun chiqaruvchi organ, masalan, parlament, kongress, yoki kartes qonunlarni ishlab chiqish va o'zgartirish huquqiga ega. Ijro etuvchi hokimiyat esa, davlat rahbari, bosh vazir yoki president qarorlar qabul qilish va siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lган ijro etuvchi hokimiyatni boshqaradi. Sud hokimiyati alohida mustaqil apparat sanaladi, xususan, O'zbekiston Respublikasida Sud hokimiyatining mustaqilligi to'la to'kis ta'minlangan va uning asosiy vazifasi fuqarolarning Konstitutsiyada, xalqaro shartnomalarda va inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha boshqa xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquq va erkinliklarini, hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Davlat xizmatchilari (mansabdor shaxslar) va hukumat mutasaddilari esa, davlat mexanizmining uzlucksiz ishlashini qo'llab-quvvatlaydi va aholiga xizmat qiladi. Jamiyat rivojlangani sari zamonga xos bo'lган davlatchilikni tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ishlar davlat boshqaruvini samarali olib borish ta'minlash orqali adolatga, ochiqlik prinsiplariga tayangan faol fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlatni qurishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy davlatchilikka erishishda har bir fuqaroda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, quyi bo'g'nlarda qonunlar va normalarni amalga oshirilishi ta'minlash, fuqarolarda qonunlarga nisbatan hurmat, ong va madaniyatini shakllantirish ham o'zining hissasi mavjud. Bu borada "Davlat organlari xalqqa – xalq o'z navbatida davlatga xizmat qilishi" tamoyilini keng joriy qilish masalasi ham bizning bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Davlat hokimiyati amalga oshiriladigan, hokimiyatga davlat rahbarligini ta'minlovchi davlat tashkilotlari tizimiga asoslangan holda, davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi, davlat funksiyalarini bajaruvchi, davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishishni ta'minlovchi davlat organlari, davlat korxonalari, va muassasalari majmuidir. Ular vositasida davlat hokimiyati amalga oshiriladi va jamiyat ustidan davlatning rahbarligi ta'minlanadi. Huquqshunos olim X.Odilqoriyev davlat mexanizmiga ta'rif berib turib, "Davlat mexanizmi (apparati) da jamiyat oldidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi vazifa va funksiyalarni bajarish maqsadida, bir qancha davlat organlari iyerarxiya asosida, yagona bir tizimga birlashadi. Shuningdek, u o'z funksiyalarini bajarib, davlat hokimiyatini

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

amalga oshiradi. Davlat mexanizmini tashkil etish muayyan obyektiv prinsiplarga tayanadi. Bu esa, jamiyatning davlat tomonidan samarali idora etilishini ta'minlaydi”³ deb ta'kidlagan. Bir so'z bilan aytganda, davlat mexanizmi- jamiyatni boshqarish va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat organlarining yaxlit tizimi. Shu o'rinda, “mexanizm” so'zini izohlaydigan bo'lsak, mexanizm (yunoncha: mechane- qurol, inshoot)- bir yoki bir necha jismning harakatini boshqa jismlarning ma'lum harakatiga aylantirib beradigan qurilma, ya'ni butun boshli bir tizim qanday ishlashi, aynan mexanizm qanday tuzilganligi (tashkil etilganligi), uning ishslash jarayoni (faoliyat ko'rsatayotgani) ga bog'liq sanaladi. Xuddi shuningdek, professor-olim Sh. Sagdullayev fikricha: “Davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun davlat mexanizmining samarali faoliyat ko'rsatishi zarur bo'ladi, davlat mexanizmi faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilmas ekan, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar o'z natijasini bermaydi. Davlat o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini tez hamda to'laqonli amalga oshirishi uchun davriy ravishda davlat mexanizmini takomillashtirib borishi lozimdir” deya ta'kidlaydi. Shuningdek, bundan bilinib turibdiki, davlat mexanizmini boshqaruv tizimidagi o'rni asosan, davlat boshqaruv tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilishi, hamda fuqarolarning huquqlari va qununiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilganlidir. Xususan, prezidentimiz, Sh.Mirziyoyev tomonidan yozilgan davlat boshqaruv faoliyatiga oid asarlarda, muhtaram yurtboshimiz, keyingi 5yillikdagi mamlakatimizning keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini, “Yangi O'zbekiston” tushunchasi real voqealikka aylanayotganini, birinchi navbatda nimalarda aks etayotganini quyidagicha ta'kidlaydi: “Agar biz bundan 5 yil oldin qabul qilgan Harakatlar strategiyasining tub mazmun-mohiyatini muxtasar ifoda etadigan bo'lsak, ushbu noyob hujjatda o'z oldimizga Yangi O'zbekiston demokratiyasining inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilishi va Yangi O'zbekistonni barpo etish va “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratishdek buyuk vazifalarni strategik maqsad qilib qo'ygan edik”. Prezidentimizning ushbu fikrlaridan anglaymizki, davlat mexanizmini samarali ishlashi jahon standartlariga va fuqarolarning davlat ishlarida ishtirot etishini yangicha talqin qilish, “Islohotlar- islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun” degan tamoyilni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Masalan, muhtaram prezidentimizning 2022-yildagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis

³ X.T. Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T.:Toshkent, “Adolat” – 2018, 121,122 – betlar.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

“ga yo’llagan murojaatnomalarida, 2023-yildagi eng ustuvor yo’nalishlarga, va shu yil davomida olib boriladigan islohotlarga to’xtalib o’tildi. Birinchi yo’nalish sifatida ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimiga o’tish taklif qilindi. Xususiy tashabbuslarni yanada kengaytirish, ularga yangi istiqbollarni ochish maqsadida endi “qo’l boshqaruvi”dan aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o’tish vaqt kelgani ta’kidlandi. Hozirgi kunda, davlat mexanizmida takrorlanish ko’p, keraksiz shtatlar bor, markazlashuv yuqori. Oqibatda, bugungi murakkab masalalarga to’g’ri yechim topish uchun ortiqcha vaqt, kuch va resurs sarflanmoqda. Vazirlarning hukumat qabul qilayotgan qarorlarda, ta’bir joiz bo’lsa, “ovozi yo’q”, ya’ni, ularning ushbu qarorlarni tayyorlash va hayotga joriy qilishdagi ishtiroti va mas’uliyati yetarli emas. Shu bilan birga, prezidentimiz yangi ma’muriy islohotlar to’g’risidagi farmonini imzolaganini ushbu murojaatnomasi orqali ma’lum qildi. Uzoq tayyorgarlik ko’rilgan ushbu islohot doirasida quyidagilar aytib o’tildi. Birinchi navbatda, vazirliklar isloh qilinishi, hukumatning ish uslubi ham tubdan o’zgartirilishi, eng avvalo vazirlik va idoralar soni 61 tadan 21 taga kamaytirilishi ko’zda tutilgan edi va bu islohot o’z tasdig’ini topgan holda, hozirgi kunda yurtimizda 21 ta vazirlik faoliyat ko’rsatmoqda. Keyingi bosqichda, davlat xizmatchilari sonini 30-35% ga qisqartirish, iqtisod qilinadigan mablag’larni ijtimoiy masalalarga yo’naltirish kabi muhim tashabbuslar prezidentimiz tomonidan ilgari surildi⁴. Bundan tashqari, “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi” tamoyili asosida yaratilgan, 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Taraqqiyot strategiyasida har biri davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy, harbiy va diplomatik kabi bir qancha sohalarda shu yillar davomida qilinadigan o’zgarishlarni o’zida mujassam etadi. Xususan, ushbu strategiyada davlatni boshqarish tizimi alohida bir bo’lim sifatida ko’rsatilgan bo’lib, uning tarkibi ichida davlat mexanizmining davlat boshqaruvidagi gorizontal tizimidan vertikal tizimigacha bo’lgan boshqaruv faoliyatdagi jarayonlarni o’zida aks ettirgan. Bu maqsadlar pirovardida davlat mexanizmini yangi bosqichga ko’tarilishi nazarda tutilgan.

Zamonaviy davlat boshqaruvi.

Hozirgi globallashuv davrida, axborot kommunikatsiyalarning taraqqiy etishi natijasida, virtual makonda tarmoqlarning keng madaniylashuvi natijasida bunga javob beradigan zamonaviy davlatchilikni qurish va boshqaruvni raqamlashtirish

⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 – yil 20 – dekabrdagi Oliy Majlis va xalqga murojaatnomasidan.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

ehtiyoji tabiiyki yuksalmoqda. Zamonaviy davlatchilik va uning rivojida, zamonaviy boshqaruv instrumentlaridan foydalanish, eng so'nggi axborot texnologiyalarini joriy etish, boshqaruvda inson omilini kamaytirib hokimiyatlar faoliyati, davlat xizmatlarini elektronlashtirish siyosati zamonaviy davlatning huquqiy qiyofasini yaratish, davlat hokimiyatini modernizatsiya qilish bu boradagi ishlarni amalga oshirishda asosiy omillar hisoblanadi. Jumladan, davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi; bilan "Elektron hukumat" ning joriy etilganligi Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazish, ularning shaffofligini ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, noaniqliklarga barham berish maqsadida yagona *elektron* tizimi joriy etish bo'yicha 2021–yildan boshlab mamlakatda Vazirlar Mahkamasining 390- son qarori asosida "E-qaror" tizimi vujudga keldi⁵. Bu orqali hokimliklarning chiqargan normativ tusdagi qarorlari adliya organi tomonidan ekspertiza qilinishi o'z navbatida mahalliy miqyosda samarali qarorlar orqali samarali boshqaruvga erishib kelinmoqda.

2024 yil fevral oyi hisobida my.gov.uz portalida jami 581 dan ortiq xizmatlar joriy etilgan hisoblanadi. Yagona portal foydalanuvchilari soni 6,3 mln nafardan oshdi. "Elektron hukumat" idoralararo platformasiga jami 120 ta axborot tizimlari integratsiya qilinib, davlat idoralari o'rtaida 840 milliondan ortiq ma'lumotlar almashinushi ta'minlanishi natijasida birgina qog'oz va transport xarajatlari uchun 36 mlrd so'm mablag' iqtisod qilinishiga erishildi⁶. Elektron hukumat faoliyati Elektron sud tizimini yanada rivojlantirish, raqamlashtirishni keng tatbiq etish o'z-o'zidan shaffoflikni ta'minlab, korrupsiogen holatlarga barham berish bu esa o'z-o'zidan davlatchiligidizni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'sha oladi.

Respublikada raqamli hukumatni shakllantirish, davlat mexanizmining tarmoq sohalarda zamonaviy sanoatni rivojlantirishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamli o'zgartirish dasturlarini o'z ichiga olgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev farmoni asosida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi qabul qilindi.

⁵ 390-сон 22.06.2021. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga "E-qaror" elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida (lex.uz)

⁶ Manba: MyGov.uz

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bu islohot ham zamonaviy davlatchilik boshqaruvida raqamlari tarmoqlarni shakllantirishga keng yo'l olib berdi. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi (keyingi o'rnlarda — Strategiya) iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamlari rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan hududlarda davlat boshqaruvida axborot-elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan hisoblanadi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlanish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'naliishlarini belgilash maqsadida: PF-60-son bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. O'zida 100 ta maqsadni ichiga olgan ushbu tashabbus orqali hayotning barcha sohalarida davlat ishtiropining samarali tizimini joriy etish borasidagi amallarda tamal toshni qo'ydi. Birgina 5-maqsadni oladigan bo'lsak unda ko'ra ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish maqsadi ilgari surilgan. Bundan tashqari norma ijodkorligi jarayonida Oliy Majlisning rolini oshirish maqsadida "Elektron parlament" doirasida deputatlarni o'z saylovchilar bilan, senatorlarni hududlardagi fuqarolar bilan bog'lash, ular bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini raqamlashtirish. Bundan tashqari 8-maqsad o'laroq norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjalarning qat'iy ijrosini ta'minlash belgilab berilgan. Unga asosan, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligi, sifati va samaradorligini ta'minlash maqsadida "aqlii tartibga solish" modeli elementlarini qo'llashdir. Ushbu tartibning asosiy maqsadi davlat va jamiyat uchun sifatlari va muvozanatli qonunchilik bazasini yaratish, ya'ni, ortiqcha xarajatlar va vaqtdan xoli holatda, qog'ozbozlik va byurokratik to'siqlarsiz qonun hujjalarni qabul qilish, qonunchilik hujjalarning tartibga solish ta'sirini baholashni rivojlanish va kengaytirish hisoblanadi⁷.

⁷ Aminov D. "Smart regulation" is a new trend in law making process. Toshkent – 2022. "Magistratura talabalaring ilmiy ishlari to'plami" mavzusidagi Respublika ilmiy-amalii konferensiyasi. 44-bet

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Mamlakatimizda yangi konstitutsiyaning qabul qilinganligi sharoitida taraqqiyotning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish maqsadi ham davlat boshqaruvi doirasida amalga oshiriliyotgan islohotlarniyangi bosqich olib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan jami 100 ta maqsadni o'z ichiga olgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi qabul qilindi⁸. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilganligi inobatga olinishi belgilandi:

Barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlaraholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyat va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

Xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

Bundan tashqari butun qonun ustuvorligi va xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish doirasida IV-bo'lumi va undagi maqsadlar ham buning yaqqol misolidir.

Albatta oldimizga qo'ygan maqsadlar ulkan. Bu borada qilinayotgan islohotlarning samaradorligini yanada oshirish uchun Davlat o'zining ma'muriy islohotlari to'laqonli "people-centered" ya'ni xalqqa qaratilgan bo'lishi, ularning har qanday manfaatlarini (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda) ko'zlab amalga oshirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Zero yuqorida sanab o'tilgan amaliy chora-tabdirlar orqali biz o'z oldimizga qo'ygan "Islohot islohot uchun emas, xalq uchun" "Inson qadri uchun", tamoyillarini amalda asosida davlat boshqaruvi mexanizmini zamonga moslashtirish, uni yuroqida sanab o'tilgan reformalar orqali to'laqonli raqamlashtirish, xalqchil zamonaviy davlatni jadallik bilan barpo etish, **xalq farovonligini** yanada oshirish, **davlat va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi** va Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "Uchinchi renessans" ni qurish uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 – yil.
2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yollagan murojaatnomasi, 2022-yil

⁸ PF-158-сон 11.09.2023. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida (lex.uz)

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi, 2023- yil.
4. X.T. Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T.:Toshkent, “Adolat”-2018
5. Davlat va huquq nazariyasi. Sh.A.Sagdullayev T.:“Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent 2021, 89-bet.
6. Davlat va huquq nazariyasi. Z.M.Islomov “Adolat” nashriyoti 2007, 358-bet
7. Aminov D. “Smart regulation” is a new trend in law making process. Toshkent – 2022. “Magistratura talabalarining ilmiy ishlari to’plami” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. (muallif maqolasi)
8. Lex.uz
9. My.gov.uz